

## ASRAB-AVAYLAYMIZ



### O'qituvchi yordamida o'rganing

Har bir o'quvchi tabiatni, o'zi o'qiyotgan maktab mulkini, shaxsiy buyumlarini asrab-avaylashi kerak. Bolaning odobi shunday vaziyatlarda bilinadi. Tejash qizg'anchilik emas, isrofgarchilikning oldini olishdir.



### Savollarga javob bering

1. Rasmlarda nimalarni ko'ryapsiz?
2. Ko'chat va gullarni nima uchun ekamiz?
3. Siz ham ko'chat va gullar ekkanmisiz?
4. Ularni qanday parvarish qilishni bilasizmi?



### Xalq o'gitalari

- Suv – hayot manbai.
- Birni kessang, o'nni ek.
- Bog' chiroyi gul bilan.
- Yerga qarasang, bog' bo'lar,  
Ko'ngil ochilib, chog' bo'lar.



## O'qituvchi yordamida o'rganing

O'zbekistonning tabiati go'zal. Biz ana shu go'zallikni asrab-avaylashimiz lozim. Kimdir shaharda, kimdir qishloqda yashaydi.

Siz qayerda yashaysiz? O'zingiz yashayotgan joy haqida gapirib bering.

Qishlog'ingiz yoki shahringiz atrof-muhitini asrash, ozodaligini saqlash uchun qanday hissa qo'shasiz?



## Tabiatni asraymiz

### Suv va elektr energiyasini tejang!

Ba'zan uydagi suv va chiroqlarni o'chirishni unutamiz. Bunday holatda bizga eslatmalar yordam beradi!

Jo'mrak yoniga va chiroq yoqib-o'chiriladigan joylarga yopishtirish uchun kichik eslatmalar tayyorlang. Bunday eslatmalarni sinf xonasiga, maktab yoki uyga ilib qo'yish mumkin.



## Savollarga javob bering

Rasmlarga qarang. Bu bolalarni tejamkor deb atash mumkinmi? Suvni isrof qilish, tabiatni asramaslik qanday oqibatlariga olib keladi?





### Topishmoqni toping

O'zi oyoq ostida,  
Hammani to'ydiradi.



O'yib oldim, izi yo'q.



Oppoq sochli boshlari,  
Daryo bo'lar yoshlari.



### Yozma topshiriq

Jadvalni to'ldiring. Nima to'g'ri va nima noto'g'ri ekanligini belgilang. Tanlovingizni tushuntiring.

**To'g'ri**



**Noto'g'ri**



Suv va chiroqdan foydalanmagan paytda o'chirmaslik	
Elektr va suvni tejash	
Duch kelgan joyga axlat tashlash	
Chiqindilarni maxsus joylarga tashlash	



## Uy vazifasi

Uy hayvonlaridan birining rasmini chizing. Siz chizgan uy hayvonining qanday foydasi bor? Uy hayvonlarini qanday parvarish qilish kerakligi haqida gapirib bering.



## Vaziyatni o'rganing

Quyidagi holatlarni ko'rib qolsangiz, qanday yo'l tutasiz?

1. O'rtog'ingiz suvga axlat tashlayapti.
2. Xonada hech kim yo'q, lekin chiroq va televizor yoqilgan.
3. Singlingiz qo'g'irchog'ining sochini yulyapti.



## Og'zaki topshiriq

Rasmlarga qarang. Rasmlardagi holatlar haqida gapirib bering.



Siz ham kimgadir g'amxo'rlik qilganmisiz? Bundan xursand bo'lganmisiz?



## Vaziyatni o'rganing

Hikoyaning davomini o'ylab toping.

1-vaziyat. Maktabdan qaytayotganda ucha olmay yerda turgan polaponni ko'rdingiz.

---



---



---



---



2-vaziyat. Ukangiz (singlingiz) katta non bo'lagini olib, ko'chaga o'ynash uchun ketyapti.

---



---



---



---



---





### Yodda tuting

- Nonni maxsus toza idishlarda saqlang.
- Keragidan ortiq non ushatmang.
- Nonni chiqindiga tashlamang.
- Nonni har joyda qoldirmang.



### Yozma topshiriq

D	I	Q	Q	A	T	B	S
T	E	J	A	M	K	O	R
G	A	M	X	O'	R	C	Y
Q	O'	R	I	Q	L	A	SH
K	U	Z	A	T	U	V	T
I	SH	O	N	CH	K	O'	Z



### Uy vazifasi

Buvingiz yoki onangiz bilan non qanday tayyorlanishi haqida suhbatlashing.